



QATAG‘ONLIK VA JAMOALASHTIRISH SIYOSATI VA UNING FOJIAVIY OQIBATLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Bobqulov Mahmud Juma o‘g‘li

Annotatsiya: biz ushbu maqolada chor Rossiyasi davrida yurtimiz ahokisi boshiga solinfan turli ofatlar va ularning asoratlari to‘grisida so‘z yurutamiz. Mamlakatimiz aholisning qatag‘on qilinishi kabi yirik xunrezliklarga to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: qatag‘on, buyruqbozlik, mustabid tizm, zulm, xalq xarakatlari, quloqlashtirish.

Kirish

Respublikadagi dehqonlarni g‘oyaviy jihatdan birlashtirib turgan tashkilotlardan biri „Qo‘shchi“ ittifoqi bo‘lgan (1920–1933-yillarda faoliyat ko‘rsatgan). 1924-yilda 200 ming kishini o‘ziga birlashtirgan bu ittifoq ham asta-sekin bolsheviklarning qishloqdagi mustabid siyosati targ‘ibotchisiga aylangan. Qishloq kambag‘allarining eng qashshoq qismini o‘zida birlashtirgan bu tashkilot kollektivlashtirish (jamoalashtirish) va „quloqlashtirish“ davrida salbiy rol o‘ynadi. O‘zbekiston SSRda bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan „sotsialistik tajriba“ mahalliy xalq tomonidan norozilik bilan qarshi olindi. Sovet hokimiyatining dastlabki 10 yilliklarida milliy rahbar xodimlar va ziyolilar tomonidan markazning zo‘ravonligiga qarshi ochiq tanqidiy fikrlar aytilgan. Muxolifat ayrim davlat va jamoat arboblari, yozuvchilar, shoirlar, maorif xodimlari va huquqshunoslarni o‘zaro birlashtirgan edi.

1925–1929-yillarda O‘zbekistonda yer-suv islohoti amalga oshirildi. Bu islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda o‘tkazildi. Keyinchalik qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish amalga oshirilib, kolxoz va sovxozlar tuzildi, biroq sho‘rolar hokimiyati o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklarini „quloq“ („mushtumzo‘r“) sifatida tugatish siyosatini olib borgan. Sovet rejimi dastavval mavjud tuzumga muxolifatda turganlarga qarshi repressiya siyosatini amalga oshirgan bo‘lsa, 30-yillardan boshlab o‘z xalqiga nisbatan ommaviy terrorni qo‘lladi. XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillar boshida O‘zbekiston SSRda „O‘n sakkizlar guruhi“, „inog‘omovchilik“, „qosimovchilik“, „badriddinovchilik“, „milliy ittihadchilar“, „narkompros ishi“ kabi siyosiy ishlar



to'qilishi va Munavvarqori boshchiligidagi milliy ziyolilarning qamoqqa olinishi natijasida ko'plab o'zbek ziyolilari qatag'on qilindi. 1931-yil aprelda Moskvada bo'lib o'tgan sud majlisidan keyin Munavvarqori boshchiligidagi 15 kishi otib tashlandi, qolgan 70 kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. 30-yillar o'rtasiga kelganda butun mamlakatda bo'lgani singari O'zbekiston SSRda ham ommaviy qatag'onlar avj oldi. Respublikadagi aksariyat siyosiy rahbarlar 1937–1938-yillarda „millatchilik va sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borish“da, shuningdek, qurolli qo'zg'olon ko'tarishni tayyorlashda ayblandi. Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Sulton Segizboyev kabi siyosiy rahbarlar qatl etildi. O'zbekiston SSR jamiyatning barcha tabaqalariga yoyilgan hibsga olish to'liqini ostida qoldi. Davlat va jamiyat arboblari, xo'jalik rahbarlari va oddiy kishilar bilan bir qatorda milliy ziyolilar ommaviy ravishda qatag'on qilindi. XX asr o'zbek adabiyotining arboblari; Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy va boshqalar otib tashlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] USMONOV, Q., & Sodiqov, M. (2008). O 'ZBEKISTON TARIXI. Iqtisod-moliya. Toshkent-2006 y.(Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burhonov."History of Uzbekistan". Economics and Finance. Tashkent-2006).
- [2] Sahobidinnova, M. (2020). QATAG'ON QURBONLARI TAQDIRI (TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA). Academic research in educational sciences, (3).
- [3] Дониёв, С. И. О. (2020). XX ASRNING 80-YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATIDAGI MADANIY JARAYONLAR VA ULARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ, 2(4).
- [4] Doniyev, S. I. O. G. L. (2020). O 'zbekistonda «paxta ishi»,«o 'zbek ishi» kampaniyalari boshlanishi va uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi. Science and Education, 1(7).
- [5] Юлдашева, Н. Н. (2021). СОБЩ СОВЕТ ИТТИФО^ИНИНГ ^АТАГОНЛИК СИЁСАТИНИ ЮРИТИШИДА "ГУЛАГ" НИНГ УРНИ. Scientific progress, 2(4), 507-512.
- [6] Namrayev, M. (2021). O'ZBEKISTONDA MEHNAT POSYOLKALARI VA U YERDAGI DEHQONLARNING TAQDIRI. Scientific progress, 2(6), 102-107.
- [7] Ходжамбердиев, Х. (2021). УЗБЕКИСТОНДА "ПАХТА ИШИ" ГА ДОИР ЯНГИ МАЪЛУМОТЛАР (1981-1985 йй.). ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(9).



- [8] USMONOV, Q., & Sodiqov, M. (2008). O 'ZBEKISTON TARIXI. Iqtisod-moliya. Toshkent-2006 y.(Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burhonov."History of Uzbekistan". Economics and Finance. Tashkent-2006).
- [9] Хошимов, С. (2021). XX асрнинг 20-30 йилларида миллий ташкилотлар таркибида қдтагон қдлинган андижонликлар. Общество и инновации, 2(2), 26-33.